

QO'QON XONLIGI DAVRIDA NAMANGAN VILOYATI MADRASALAR FAOLIYATI

Sobirov Jamshidbek Zokirjon o'g'li¹

Ahmadjonov Ahrorbek²

^{1,2} Andijon Davlat Universiteti Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6657802>

Abstract. Maqolada XVII-XIX asrda Qo'qon xonligi davrida qurilgan madrasalar faoliyati, qayerda joylashganligi, kim tomonidan barpo etilganligi haqida batafsil bayon etilgan. Shuningdek Namangan viloyatining Chodak qishlog'i haqida ham so'z yuritilgan.

Keywords: Qo'on xonligi, Namangan viloyati, Chodak qishlog'I, Madrasa, Baka Oxund, Turkiston o'lkasi, Abdullaxon II, Do'st Og'aliq, Sardoba madrasasi, Xo'ja Muhammad Roziqboy, Mahmud Dasturxonchi, Xazrat Mavlon Lutfilla.

Qo'qon xonligining Namangan viloyati qadimdan madaniyat, ilm-marifat rivojlangan o'lkalardan biri bo'lgan. Bunga qisman Namanganning tog'li hududidagi Chodak qishlog'ida o'qimishli, ilmiy, ziyoli xo'jalarni ko'chib kelib joylashib qolganligi tasir ko'rsatgan.

Chodak xo'jalari tarkibida ham diniy ilmlarni chuqur egallagan, Qur'on va Xadislarni mukammal bilgan va ularni tashviqot qiluvchilar ko'p bo'lgan. Islom diniga etiqoti baland mulkdor, badavlat xo'jalar masjid, madrasalar bunyot etib, islom dinini mahalliy aholi o'rtasida tarqatishga o'z xissalarini qo'shishgan Chodak xo'jalaridan biri Baka Oxund bo'lgan va u o'zining qishlog'ida madrasa qurdirgan va uning nomi bilan atalgan. Baka Oxund o'qimishli, domulla kishi va islom diniga etiqodi baland bo'lgan. Baka Oxund Chodakda 1202 yili madrasa qurdirgan. XIII asr boshida tashkil bo'lgan madrasa haqidagi xujjat topilgunga qadar biz XVI asrda bunyod etilgan madrasa bilan tasdiqlangan eng qadimgi o'quv yurtlari deb hisoblangan edi.

Turkiston general-gubernatori P.K.Kaufmannning topshirig'I bilan 1880 yildan boshlab Farg'ona viloyati boshqarmasi uezd boshliqlari, xususan, Namangan uezdi boshlig'i zimmasiga xar yili Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari boshqarmasiga uezddagi islom o'quv yurtlari ro'yxatini jo'natib turishni yuklagan. Namangan uezdi boshlig'i har yili madrasalar va boshqa o'quv yurtlari to'g'risida ma'lumotlarni jo'natib turgan.

Namanganda Abdullaxon II (1557-1598 yil) davrida yangi madrasa, qorxona va maktablar qurilgan. Isoxoqxon Ibratning "Farg'ona tarixi" asarida yozilishicha, Namangan Abdullaxon II zamonida ancha obod bo'lga. Bu yerda u ko'pgina sardobalar va gumbazli binolar qurdirgan. Isoxoqxon "Farg'ona tarixi" asarida "Buxoro xonlaridan Abdullaxon bu Farg'ona taraflariga kelib sardobalar kavlab,

tepasi gumbazlar qilib, ko'p xalqqa naflik ishlarini qilgan xon ekan." deb yozgan.

Abdullaxon Namanganga kelganida Sardoba nomli madrasa bo'lgan. Odatda yoshlar maktabni tamomlagandan keyin madrasaga o'qishga kirgan. Namanganda Abdullaxon va keying xonlar davrida maktab, qorixona, madrasalar tashkil qilinib Namangan madaniyati rivojlangan shaharga aylangan.

XVI asrga oid Chodak qishlog'ida 1578 yilda bunyoq etilgan 1 ta madrasa va Koson qishlog'ida Xapala xo'ja mahallasida tashkil qilingan. XVII asrda Namangan shahrida 1683 yilda qurilgan Do'st Og'aliq nomli Madrasa faoliyat ko'rsatgan va bu paytda Namanganda 5 ta madrasa, 1 ta qorixona va 13 ta maktab ish yuritgan.

Chodak qishlog'ining bozorida joylashgan madrasa ya'ni Chodak madrasasi Namangan uezdining eng qadimgi madrasasi hisoblanadi madrasa 1578 yilda tashkil topgan. Chodak madrasasini qurdirgan shaxs o'z davrining yirik yer egasi bo'lgan. Farg'ona vodiysidagi madrasalar Chodakda bunyod etilgani bejiz emas. Bu qishloq qadimdan mashxur xo'jalar joylashgan joy bo'lgan. Qo'qon xonligi tashkil qilishda Buxoro xonligidan Farg'onani ajratib olishda Chodak xo'jalari muhim ahamiyat kasb etgan. Chodak xo'jalari 1709 yilda qo'zg'olon ko'tarib Shoxruhbiyni xon qilib ko'targaan va mustaqil Qo'qon xonligini bunyod etishgan.

Namangan viloyatining mashxur ruxoniysi , katta yer egalarida biri Muhammad Xo'ja Eshon 1828 yilda Koson qishlog'ida madrasa qurdirgan. Madrasani tamirab turish, jihozlash va xizmatchilarni ish xaqqi bilan, talabalarni nafaqa bilan taminlash maqsadida 946 tanobdan iborat viloyatning bir necha qishloqlardagi yer uchastkalarini vaqf qilib bergan.

1829 yilda Koson qishlog'ida shu qishloqning katta yer egalaridan biri Xo'ja Muhammad Roziqboy madrasa qurdirgan. O'zining nomidagi madrasa Faoliyatni yuritish, o'quv-tarbiyaviy ishlarni olib boorish, tamirlash uchun madrasaga nisbatan katta miqdorda yer tasis etgan.Hozirgi kunda Xo'ja Muhammad Roziqboy madrasasining vaqfnomasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlangan.

Mahmud Dasturxonchi Qo'qon xonligi 4 ta madrasa qurdirgan.Shulardan biri Namangan viloyatining Chust shahrida barpo etilgan. Mahmud Dasturxonchi Xudoyorxon saroyida xizmat qilib kattaboylik ortirgan.

Mahmud Dasturxonchining yana bir madrasasi Chust shahridagi Xazrat Mavlon Lutfilla mozori yonida joylashagan. Bu madrasa Chust shahridagi madrasaga nisbatan ancha yirik madrasa bo'lgan. Madrasa 32 xujra va 2 darsxonadan iborat bo'lgan. Xazrat Mavlon Lutfilla Islom dinining O'rta Osiyodagi mashxur arboblardan biri bo'lgan.Mozorni ziyorat qilgani ko'plab ziyoratchilar kelgan va mozor shayxiga xadya, sadaqa berib turgan.

Xulosa qilib aytganda ,Quron oyatlari va Xadislardan xar bir mo'min-musulmonni ilm o'rganishga davat etilgan. Quronda ilm so'zi ko'p marotaba takrorlangan. Shuning uchun islom dini O'rta Osiyoda, xususan, Namanganga yoyilganidan keyin musulmonlar orasida ilm o'rgatadigan maktab, madrasalar keng tarqalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Alimov « Qo'qon xonligi madrasa va maktablari tarixi» Toshkent-2017
2. Bahodir Eshov, «O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi»,Toshkent-2012
3. Azamat ZiyO O'zbek davlatchilik tarixi Toshkent-2001
4. www.ziyonet.uz
5. www.ziyonet.uz